

ZULUKLAR SINFI TIBBIYOT ZULUGI TUZILISHI VA FOYDALI  
XUSUSIYATLARI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya 1-bosqich  
talabasi **Imomxonova Mavludaxon**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda zuluklar haqida ma'lumot berilgan bo'lib. Tibbiyot zulugining tuzilishi va inson tanasiga shifobaxsh ta'siri haqida tanishib chiqamiz.

**Аннотация:** В данной дипломной работе приведены сведения о пиявках. Познакомимся со строением медицинской пиявки и ее целебным действием на организм человека.

**Annotation:** This thesis provides information about leeches. Let's get acquainted with the structure of medical leech and its healing effect on the human body.

**Kalit so'zlar:** germafrodit, girudin, divertikula, gialuronidaza,

**Ключевые слова:** гермафродиты, гирудин, дивертикулы, гиалуронидаза,

**Key words:** hermaphrodite, hirudin, diverticula, hyaluronidase.

**ZULUKLAR (HIRUDINEA) SINFI.** Bu sinfga 400 ga yaqin tur kirishi ma'lum bo'lib. Ular asosan chuchuk suvlarda, bir qismi esa dengizlarda yashaydi. Umrtaqali hayvonlarda vaqtinchalik ektoparazitlik qilib yoki yirtqichlarcha hayot kechiradi. Ular asosan qon so'rib yoki mayda hayvonlar bilan oziqlanadi. Ba'zi bir turlari quruqlikda yashashga ham moslashgan. Masalan, tropik nam o'rmonlarda, quruqlikda - Avstraliya, Janubiy Osiyo, Yaponiya va boshqa janubiy mamlakatlarda 3-5 sm li qonxo'r jag'li zuluklar daraxtga yopishgan holda hayvon yoki odam o'tishini poylaydi va ko'p kollarida ularga tashlanib, azob beradi.

Zuluklar juda ham harakatchan, suv ostida o'rmalab yoki suvda suzib hayot kechiradi. Ularning tanasi yelkadan qorin tomonga yassilashganligi bilan boshqa halqali chuvalchablardan farq qiladi. Tanasining oldingi uchida muskulli so'rg'ichi bo'lib, uning o'rtasida og'iz teshigi joylashgan. Gavdasining keyingi uchida esa juda yaxsh rivojlangan orqa so'rg'ichlari joylashgan, orqa so'rg'ichining yelka tomonida anal teshigi bor. Zuluklar boshqa halqali chuvalchablardan ana shu so'rg'ichlarining bo'lishi, ularda parapodiyalar, jabralar va boshqa qillarning bo'lmasligi (qillar faqat ptimitiv turlaridan - qildor zuluklardagina saqlangan) bilan keskin farq qiladi. Bundan tashqari, zuluklar gavdasining tashqi halqalari ichki halqalariga tog'ri kelmaydi, ya'ni tashqi segmentlar bilan ichki segmentlarning mosligi buzilgan. Zuluklarning turli vakillarida har qaysi haqiqiy ichki segmentiga 3 tadan 5 tagacha tashqi segmentlar to'g'ri keladi (tibbiyot zulugida 5 ta tashqi segment to'g'ri keladi). Zuluklarning tashqi halqalanishi tashqi muhitga moslashish xususiyatlaridan bo'lib, bu qalinlashib ketgan

teri-muskul qoplag'ichining egiluvchanligini taminlaydi. Zuluklar tanasining uzunligi 1 sm dan 30 sm gacha boradi.

Tibbiyot zulugi jag'li zuluklar turkumiga kiradi. Uning og'iz bo'shlig'ida bir-biriga qarqama-qarshi joylashgan, xitindan iborat 3 ta jag'i bor. Ularning ustki qismi qirrali, o'tkirlashgan bo'lib, unda 80-90 ta mayda tishchalari mavjud . Bular yordamida qon so'rish payrida zuluklar xo'jayinining terisini kesadi. SHuning uchun ham terida zuluk qon so'rganidan keyin 3 qirrali chandiqli izlari qoladi. Zulukning halqumi atrofida *girudin* suyuqligi ajratuvchi bezlar joylashgan . *Girudin* suyuqligi qonni ivib qolishidan saqlaydi, natijada zuluk qon so'rayotgan paytida u uzluksiz oqib turadi, hatto zuluk to'yib tushganidan keyin ham qon oqib turishi mumkin. Zuluklarning so'lagi tarkibida *gialuronidaza* fermenti ham mavjud bo'lib, u faol moddalarni organizmning to'qimalarga chuqurroq kirib borishiga imkon beradi -10 sm gacha. SHuningdek, bu ferment biriktiruvchi to'qimalarni parchalaydi, shu sababli chandiqlarning so'rilib ketishi kuchayadi.

Og'iz bo'shlig'i va halqum ichakning ektodermadan hosil bo'lgan oldingi qismini tashkil qiladi. Undan keyin esa endodermadan hosil bo'lgan o'rta ichak yoki "jig'ildon" boshlanadi. Uning ikkala yon tomonida 10-11 juft keying uchi berk o'simtalar – *divertikulalar* mavjuddir. Shulardan eng oxirgi o'simtasi uzun bo'lib, u tananing oxirgi uchigacha cho'ziladi. Bu o'simtalarda *girudin* bilan aralashgan qon uzoq muddatga ivimasdan saqlanadi. SHuning uchun ham zuluk 1-1,5 yil davomida qon so'rmasdan yashashi mumkin. Orqa ichakning oldingi qismi esa pufaksimon kengayib ektodermadan hosil bo'lgan to'g'ri ichakni tashkil qiladi. Zuluklar shu jumladan tibbiyot zulugi ham ikki jinsli *germafroditdir*.

Tibbiyot zulugi bilan davolashning foydalari:

Tromb hosil bo'lishi xavfi kamayishi ;

To'qima va organlarda qon aylanishini tiklanishi;

To'qimalarni ozuqa moddalari va kislorod bilan yaxshiroq ta'minlanishi;

Xolesterin darajasi normallasishi va immunitet mustahkamlanishi ;

Qon bosimi me'yorlashishi, yurak faoliyati yaxshlanishi.

Zuluklar rasmiy ravishda dorivor sifatida tan olingan va ko'plab mamlakatlarda dori vositalari retseptiga kiritilgan.

**Xulosa:** Tezida zuluklar haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishildi. Zuluk yirtqich bo'lishiga qaramasdan uni shifobaxsh ta'siri bor. Butun dunyoda qon bosimi xastaliklari bilan qiynalayotgan insonlarga tibbiyot zulugini sezilarli foydasi tegadi va bu tezisdan bilimlarimiz oz bo'sa ham ortdi deb o'ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O. Mavlonov, SH. Xurramov, X. Eshonova. "UMURTQASIZLAR ZOOLOGIYASI" –Toshkent – 2006-yil.
2. Z.N.Norboyev. " Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasidan amaliy mashg'ulotlat " -Toshkent – 1991-yil.
3. S.Dadayev, G. Abduraxmonova. "Umumiy parazitologiya" – Toshkent – 2013-yil.
4. "Sug'diyona" gazetasi.